

Eski chorig'ingni unutma!

To'qsonboy bilan Ulug' oyim talaygina vaqt birga turmush kechirib, uzoq ko'z tutib, o'g'il ko'rishdi. Otini Izzat qo'yishdi. Yaxshi niyat bilan, izzat-hurmat ko'rsin, degan orzuda shunday qilishdi.

Hamsoya hovlida ham xuddi shu kuni chaqaloq ovozi yangradi. Saksonboyning rafiqasi Himmat xolaning ko'zi yordi. Bu ham qo'zichoqday o'g'lon... Qo'ni-qo'shni jam bo'lib o'ylashdi. Biri-biriga esh bo'lib dunyoga keldi azamatlar, otlari taqovul bo'la qolsin! Ikrom, deb atashdi Saksonboyning o'g'lini.

Izzat va Ikrom. Bir-biriga qanday monand, ma'nodosh so'zlar.

Izzat va Ikrom chindan ham birga o'sdi, birga qaddi-qomat cho'zdi. Yoshlari teng, bo'y-bastlari teng — hamisha inoq bo'lishsin, mushkullari oson bo'ladi, deb quvonishardi ota-onalari.

To'qsonboy ham, Saksonboy ham o'g'liga echki terisidan choriq tikib berib, dalaga chiqarishdi, ko'zimiz yorug'lig'ida o'z nasibalarini terib olishga o'rganishsin, deyishdi.

Echki terisidan choriq kiygan ikki o'g'lon tongdan to shomgacha ter to'kishardi. Sigir yetaklab, qo'y-qo'zi ketidan yuguribgina qolmay, ekin ekishni, suv qo'yishni, hosil yig'ishni ham o'rganib olishdi.

Hademay vaqtি-soati yetib, birin-ketin otalar ham, onalar ham yorug' dunyodan ko'z yumishdi.

Zamonaning zayli bilan Izzat mansabdor bo'lib ketdi. Ot minib, yo'l changitib, qishloqma-qishloq kezardi u. Ammo negadir o'z tug'ilgan qishlog'iga kamdan-kam kelardi.

Ikrom og'aynisini sog'inib qoldi. Kunlardan birida tongda uyqudan turib, bir savat uzum uzdi, shaftoli-yu olma terdi. Shaharga tushdi. Do'stining uyini so'rab-surishtirib zo'rg'a topdi.

Izzat quchoq ochib kutib olar, degan ishonch bilan kelgan edi Ikrom. Ana shu shirin daqiqaga tezroq yetish ishtiyoyqida qalbi yonib talpinardi.

Izzat qalin ishkom tagida kattakon yog'och karavotda taltayib yotardi.

— O, Ikrom-ku, — dedi u o'rnidan qo'zg'almay, — nima ko'tarib yuribsan?

— Ko'ngil tusab qoluvdi seni. Qo'lim quruq kelmay, deb sovg'a-salom...

Ikrom meva to'la savatlarini avaylabgina yerga qo'ydi.

— Nima bor ularda? Olmadur, shaftolidur...

— Ha, o'zing ko'rgan bog'da mevalar g'arq pishgan hozir. Nasibangni olib keldim.

— Ovora bo'psan-da. Meva uyda irib-chirib yotibdi. Qo'-yarga joy yo'q.

Ikromning eti seskanib ketdi.

— Totib ko'r, yoqmasa tashlab yuborarsan.

— Totib ko'ramiz, albatta, totib ko'ramiz. Ammo ish ko'p. Bosh qashishga vaqt yo'q. Hamisha yugur-yugur.

Izzat uyquga ketdi. Hademay xurrak ota boshladi. Ikrom qishlog'iga qayta turib o'yldi:

— Nima balo, ko'r bo'libdimi Izzat? Mansab, tekin molu davlat boshini rosa gangitganga o'xshaydi. Semizlikni qo'y ko'taradi, deb bejiz aytmagan ekan donolar. Yotgan joyidan aqalli qo'zg'almadiyam-a! Mehrimni qo'shib olib borgan sovg'a-salomimniyam nazar-pisand qilmadi-ya!

Xurrak otayotgan Izzatning oyog'i uchida, yog'och karavotning chetida qolgan noz-ne'matlar - olma, uzum, shaftoli Ikromning ko'z o'ngida gavdalandi. Ular beqadr bo'lgani-ga achindi. Toza ter tomchilari iflos yerda qoldi!

Oradan bir oy o'tdi. Shunda Ikrom echki terisidan tikilgan chorig'ini qidirib topdi. Shohi ro'molchaga o'rab, Izzatnikiga sovg'a qilib olib bordi.

Izzat hayron bo'ddi:

— Nima, tillo keltirdingmi, do'stim? Apil-tapil ochib qarasa, charmdan tikilgan eski chorig'...

— Masxara qilyapsanmi meni, — o'shqirdi Izzat, — nega yirtiq chorig' olib kelding, yana shoyi ro'molchaga o'rab olganingni qara-yu?!

— Chorig' — bolalikdagi yo'ldsoshimiz. Uyingning to'riga ilib qo'y uni. Ko'zing ochiladi shunda. Eski chorig'ingni hech qachon unutma, og'ayni!